

O'ZBEKISTONDA MEHMONDO'STLIK SANOATINING RIVOJLANISH OMILLARI VA MUAMMOLARI

Madaminova Gulmira Akramjon qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti
gulmiramadaminova522@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining ahamiyati, mamlakat salohiyati va rivojlanish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqotda turizmning milliy iqtisodiyotga ta'siri, yangi ish o'rinlari yaratishdagi roli va infratuzilmani rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonning boy madaniy merosi va tabiiy landshaftlari asosida turizm sektorining asosiy yo'nalishlari — madaniy, ekologik, gastronomik, sarguzasht va sog'lomlashtirish turizmi imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot davomida turizm sohasida mavjud bo'lgan asosiy muammolar, jumladan, mavsumiylik, infratuzilma yetishmovchiligi va marketing strategiyalari yetarlicha rivojlanmagani tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Turizm, iqtisodiy rivojlanish, madaniy meros, ekoturizm, gastronomik turizm, sarguzasht turizmi, sog'lomlashtirish, infratuzilma, davlat boshqaruvi, xalqaro hamkorlik.

Kirish: O'zbekistonning mehmondo'stlik sanoati mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Mehmonxona va restoran xizmatlarining kengayishi, turizm sohasining rivojlanishi hamda xalqaro tajribaning tatbiq etilishi ushbu tarmoqning jadal rivojlanishiga olib kelmoqda. Biroq, bu jarayonda bir qator omillar va muammolar mavjud bo'lib, ularning o'rganilishi mehmondo'stlik sanoatini barqaror va samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Mehmondo'stlik sanoatining rivojlanishiga bir necha asosiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, bozorning talablariga moslashuvchanlik va xodimlar omili katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, xizmatlarning innovatsion rivojlanishi bozor ehtiyojlariga moslashish, xodimlarning sadoqati, ularni o'qitish va rag'batlantirish bilan chambarchas bog'liqdir¹²⁷. Ikkinchidan, iqtisodiy va siyosiy aralashuvlar muhim rol o'ynaydi. Hukumat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va mehnat bozoriga oid islohotlar mehmondo'stlik sanoatiga likvidlik va talabni rag'batlantirish orqali ta'sir qiladi¹²⁸. Uchinchidan, global tendensiyalar ham ushbu sohaning rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qiladi. YaIM o'sishi, iqtisodiy daromadlarning oshishi, globallashtirish, demografik o'zgarishlar va texnologik innovatsiyalar mehmondo'stlik sanoatining yangi bosqichga chiqishiga yordam beradi¹²⁹. Bundan tashqari, sayyohlarning xatti-harakatlari va ularning o'zgaruvchan istaklari ham mehmondo'stlik xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantiradi¹³⁰.

Biroq, ushbu sohaning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi qator muammolar ham mavjud. Iqtisodiy inqirozlar mehmondo'stlik sanoatiga katta zarba berishi mumkin. Masalan, COVID-19 pandemiyasi tufayli turizm to'xtagan, mehmonxonalar va restoranlar yopilgan hamda ko'plab ish o'rinlari yo'qotilgan¹³¹. Shuningdek, mehnat xarajatlarining yuqoriligi, past foyda marjalari, raqobat, oziq-ovqat narxlarining oshishi va xodimlarning tez-tez almashinuvi ushbu sohada uzoq

¹²⁷ Pikkemaat, B., Peters, M., & Chan, C. S. (2018). Needs, drivers and barriers of innovation: The case of an alpine community-model destination. *Tourism management perspectives*, 25, 53-63.

¹²⁸ González-Torres, T., Rodríguez-Sánchez, J. L., & Pelechano-Barahona, E. (2021). Managing relationships in the Tourism Supply Chain to overcome epidemic outbreaks: The case of COVID-19 and the hospitality industry in Spain. *International journal of hospitality management*, 92, 102733.

¹²⁹ Sharma, M., Antony, R., Sehrawat, R., Cruz, A. C., & Daim, T. U. (2022). Exploring post-adoption behaviors of e-service users: Evidence from the hospitality sector/online travel services. *Technology in Society*, 68, 101781.

¹³⁰ Yang, Z., Xia, L., & Cheng, Z. (2017). Performance of Chinese hotel segment markets: Efficiencies measure based on both endogenous and exogenous factors. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 32, 12-23.

¹³¹ Khan, K. I., Niazi, A., Nasir, A., Hussain, M., & Khan, M. I. (2021). The effect of COVID-19 on the hospitality industry: The implication for open innovation. *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*, 7(1), 30.

muddatli barqarorlikni ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi¹³². Atrof-muhit va xavfsizlik bilan bog'liq tahdidlar, jumladan, iqlim o'zgarishi, xavfsizlik masalalari va pandemiya kabi kutilmagan voqealar ushbu sohaga salbiy ta'sir ko'rsatadi¹³³. O'zbekistonda esa infratuzilma va ta'lim tizimidagi kamchiliklar mehmondo'stlik sanoatining jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin¹³⁴ (Rakhimov, 2014).

O'zbekistonda turizm yo'nalishiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo'nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilishni jadallashtirish, shuningdek, sohani davlat tomonidan boshqarishda yangi tartib-taomillarni joriy qilish maqsadida 2023-yil 27-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-son, 2023-yil 26-aprelda "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"dagi PQ-135-son, 2022-yil, 18-fevralda "Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-135-sonli qarorlari qabul qilindi.

Asosiy qism: Mehmondo'stlik sanoatining hududiy rivojlanishdagi ahamiyati turli sohalarda namoyon bo'lishi mumkin. Avvalo, turizm industriyasini rivojlantirish orqali mamlakatda boshqa xizmat turlarini ham takomillashtirishga erishish mumkin. Jumladan, transport, oziq-ovqat, kommunikatsiya, mehmonxona, qurilish kabi bir qator tarmoqlarni dunyo talablariga moslashtirish va bu orqali sifatni yaxshilash imkoni mavjud.

Shuningdek, turizm ko'plab ishchi o'rinlar yaratish xususiyatiga ega yo'nalishdir. BTT (UN Tourism) ma'lumotlariga qaraganda, dunyo bo'ylab har 10 ta sayyoh bitta ishchi o'rnini yaratadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda ham turizmning rolini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ushbu sanoatdan kelgan daromadlar hukumatga ko'priklar va temir yo'llar kabi zarur infratuzilmani yaxshilashga yordam beradi, bu esa o'sha hududlarni yanada rivojlantirilishi yo'lida xizmat qiladi.

Ma'lumki, turizm sanoati xizmatlar sohasi tarkibiga kirib mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida turizm sanoatining ahamiyatini mamlakat YaIMdagi ulushi orqali yaqqol ko'rish mumkin. Statistika agentligi ma'lumotlariga qaraganda, 2023-yil yakunlariga ko'ra, xizmatlar sohasining O'zbekiston Respublikasi YaIMidagi ulushi 43,4 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (60,9 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (39,3 %) kuzatildi. 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarida 242 701,6 mlrd. so'mga yetdi. YaIM tarkibida tovarlar ishlab chiqarishda 107 919 mlrd. so'm, xizmatlar ko'rsatish sohasida 126 764,5 mlrd. so'm miqdorida yalpi qo'shilgan qiymat yaratildi, mahsulotlarga sof soliqlar esa 8 018,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi 6,2 % ga yetdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YaIM umumiy hajmining 96,7 % ini tashkil etdi va 6,3 % ga o'sdi.¹³⁵

Bundan tashqari, har qanday chet el fuqarolari mamlakatga tashrif buyurganlarida, ular qabul qiluvchi davlatning moliyaviy zaxiralarini mustahkamlash omili hisoblangan valyutani olib kelishadi. Shuningdek, turizm industriyasi mahalliy sayyohlik joylariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy

¹³² Alonso, A. D., & O'Neill, M. A. (2009). Staffing issues among small hospitality businesses: A college town case. *International Journal of Hospitality Management*, 28(4), 573-578.

¹³³ Legrand, W., Inversini, A., Laeis, G., & Hindley, C. (2024). From Sustainable to Net Positive Hospitality.

¹³⁴ Rakhimov, M. (2014). Central Asia and Japan: Bilateral and multilateral relations. *Journal of Eurasian studies*, 5(1), 77-87.

¹³⁵ <https://andstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/9542-yaim-yahm-ning-tarmoqlar-bo-yicha-tarkibida-sanoatning-ulushi-qanday>

investitsiyalarni jalb qilishda ham muhim ahamiyatga ega, bu esa mahalliy iqtisodiyotga yanada ko'proq foyda keltiradi.

Turizm sektori, shu bilan birga, mamlakatning boy san'ati, tarixi va madaniy jihatlarini saqlab qolishga ko'maklashadi. Dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyurgan sayyohlar turistik ahamiyatga ega joylar, shuningdek, ularning madaniy va tarixiy ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'lishadi. Bu, o'z navbatida, ularni kelajak avlodlar uchun asrash zarurligi to'g'risida ongni kengaytiradi.

Shu sababdan, O'zbekistonda bu sektorning iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlash uchun bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida bir qator ishlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- Turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda 20 AQSh dollaridan 100 AQSh dollarigacha bo'lgan ekvivalentda rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratish;

- Turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirilgan charter aviaqatnovlari bo'yicha xarajatlarining bir qismi har bir xorijiy turist uchun, u respublika hududida kamida besh kecha tunab qolgan taqdirda, 20 AQSh dollari, qish mavsumida (20-noyabrdan 20-fevralgacha) esa 50 AQSh dollari ekvivalentida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda qoplab berish;

- 2025-yil 1-yanvarga qadar toifasi (yulduz) bo'lmagan joylashtirish vositalari uch va undan yuqori toifa (yulduz) olganda, ularning muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish bo'yicha xarajatlari Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplab berish;

- malakali kadrlar tayyorlash va xalqaro darajada tan olingan ta'lim dasturlarini "franshiza" asosida jalb qilishni yo'lga qo'yish kabi rejalar shular jumlasidan.¹³⁶

O'zbekiston salohiyati jihatidan bir qancha turizm sektorlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega mamlakat hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan hududlarda mavjud turizm

1-guruh: Tarixiy-madaniy markazlar:	2-guruh: Tabiiy diqqatga sazovor joylar va ochiq havodagi tadbirlar:	3-guruh: Ekoturizm va madaniy tadqiqotlar:
- Toshkent: Muzeylar, yodgorliklar va jonli bozorlarni taklif qiluvchi zamonaviylik va tarix uyg'unlashgan poytaxt shahar. - Samarqand: o'zining ajoyib islom me'morchiligi, jumladan Registon va Shohizinda bilan mashhur. - Buxoro: O'rta asr me'morchiligi, jumladan, Ark qal'asi va Kalon masjidi bilan mashhur. - Xiva: O'rta asr me'morchiligi yaxshi saqlanib qolgan qadimiy Ipak yo'li shahri, jumladan Ichan qal'a.	- Farg'ona vodiysi: Tabiat va madaniyat uyg'unligi, go'zal manzaralari, hunarmandchilik ustaxonalari va Qo'qon kabi tarixiy joylar. - Surxondaryo: Fayoz tepa va Zurmala minorasi kabi buddizmga oid arxeologik yodgorliklar joylashgan qadimiy Termiz shahri. - Navoiy: Nurota tog'lari va Nurotau davlat qo'riqxonasi va Biosfera rezervati ekoturizm va sarguzasht uchun imkoniyatlar taqdim etadi. - Jizzax: Zomin tog'lari tabiiy go'zalligi bilan mashhur.	- Qoraqalpog'iston: Tarix va madaniyatga boy, an'anaviy hunarmandchilik, muzeylar va arxeologik obidalarga ega. - Nukus: Savitskiy muzeyi, rus avangard san'ati va Xorazm arxeologik yodgorliklaridan topilgan ashyolar. - Orol dengizi mintaqasi: Ekologik muammolarga qaramay, u ekoturizm va madaniy tadqiqotlar uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. - Namangan: Chimyon tog'lari ko'rinishidagi tabiiy go'zallik va madaniy kashfiyotlar uchun imkoniyatlar.

¹³⁶ <https://lex.uz/docs/-6549286>

sektorlarini o'rganish va baholash maqsadida mamlakat hududini imkoniyatlari jihatidan bir nechta qismga ajratib olish mumkin.

Ushbu taqsimot O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosidan tortib ajoyib tabiiy landshaftlari va ochiq havoda sayyohlik imkoniyatlarini ko'rsatishga qaratilgan.

Biroq, O'zbekiston katta sayyohlik salohiyatiga ega bo'lishiga qaramay bir qator muammolar va foydalanilmayotgan yoki to'liq foydalanilmayotgan bir qancha sohalar mavjud.

Turizm sohasininig oldida turgan yechilishi qiyin bo'gan muammolardan biri bu mavsumiylikdir. Marketing faoliyati, ishchi kuchi bozori (ishning ko'lami va sifati, malakali mutahassislarning mavjudligi, ish bilan bandlikning barqarorligi va boshqalar), tadbirkorlikni moliyalashtirish, aktsiyadorlarni boshqarish va faoliyatning barch jihatlariga kabi ta'minot tomon xatti-harakatlarning ko'p jihatlariga mavsumiylik ta'siri mavjud.¹³⁷

Madaniyatga sho'ng'ish dasturlari to'liq foydalanilmayotgan imkoniyatlardan biri. O'zbekistonning boy madaniy merosi xonadonlar, madaniy almashinuvlar va an'anaviy hunarmandchilik bo'yicha amaliy mashg'ulotlar kabi madaniy tajribalar uchun imkoniyatlar taqdim etadi. Ba'zi tashabbuslar mavjud bo'lsa-da, madaniy almashinuvni kuchaytirish va sayyohlar uchun haqiqiy tajribalarni taqdim etish uchun ushbu dasturlarni yanada rivojlantirish va targ'ib qilish salohiyati mavjud.

Yoki sarguzasht turizmi. Tog'lar, cho'llar va daryolar kabi turli landshaftlari bilan O'zbekiston piyoda sayr qilish, trekking, qoyaga chiqish va daryo raftingi kabi sarguzasht turizmi uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq, sarguzasht turizmi infratuzilmasi va xizmatlarini rivojlantirish ko'plab sohalarda hali ham cheklangan bo'lib, ushbu segmentning o'sishini cheklaydi.

Ekoturizmni O'zbekiston iqlimi va geografik joylashuvi jihatidan mamalatning eng katta salohiyatlaridan biri deyish mumkin. O'zbekistonning tabiiy landshaftlari, jumladan, biosfera rezervatlari, milliy bog'lar va yovvoyi tabiat qo'riqxonalarini ekoturizm va tabiatga asoslangan tajribalar uchun imkoniyatlar yaratadi. Tabiatni muhofaza qilish, barqaror amaliyotlar va yovvoyi tabiatni kuzatishga qaratilgan ekoturizm tashabbuslarini ishlab chiqish atrof-muhitga e'tiborli sayohatchilarni jalb qilishi va mahalliy tabiatni muhofaza qilish harakatlariga hissa qo'shishi mumkin.

Turizmga ekologik barqarorlikka erishish butun dunyo uchun muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bir necha yillardan buyon turli mamlakatlarda kuzatilayotgan ekologik o'zgarishlar va muammolar, jumladan tabiiy ofatlarning ko'payishi, havoning ifloslanishi, yuqumli kasalliklarning avj olishi, umumiy miqyosda hal qilinadigan masala sifatida qaraladi. Bu kabi hodisalar nafaqat inson salomatligi balki mamlakat turizm sanoati va iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda ham, shu qatorda, bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Havoning qurishi va chang miqdorining ortishi, tuzli bo'ronlar ayniqsa Qoraqalpog'iston va Xorazm hududlarida kuzatilishi shular jumlasidan.

Gastronomik turizm esa mamlakatning barcha viloyatlari uchun eng katta imkoniyat manbai hisoblanadi. O'zbek taomlari rang-barang va mazali bo'lib, Ipak yo'li bo'ylab turli madaniyatlar ta'sirida shakllangan. Pazandachilik turizmi, jumladan, oziq-ovqat sayohatlari, pazandachilik kurslari va mahalliy bozorlarga tashriflar O'zbekistonning gastronomik merosini namoyish etish imkoniyatiga ega. Biroq, ushbu sektor tajribasini targ'ib qilish cheklangan va oziq-ovqat turizmi uchun infratuzilmani yaxshilash kerak.

Yana bir to'laonli foydalanilmayotgan sektor sifatida sog'lomlashtirish turizmini olish mumkin. O'zbekistondagi termal buloqlar, mineral vannalar va an'anaviy kurort muolajalari salomatlik va sog'lomlashtirish turizmi uchun imkoniyatlar yaratadi. Sog'lomlashtirish kurortlari, kurort muassasalari va dam olish maskanlarini rivojlantirish dam olish, yoshartirish va yaxlit salomatlik tajribasini izlayotgan sayohatchilarni jalb qilishi mumkin.

¹³⁷ Abdulmamidovna, Y. S. (2024). Turizm sohasini rivojlantirishning dolzarb muammolar. *Science and innovation*, 3(Special Issue 28), 867-871.

Kino turizmi. O'zbekistonning ajoyib manzaralari, qadimiy shaharlari va tarixiy obidalari ko'plab filmlar va televizion spektakllar uchun fon bo'lib xizmat qilgan. Kino turizmini targ'ib qilish uchun mamlakat kinematografiya merosidan foydalanish, jumladan, suratga olish joylari va kinofestivallarga ekskursiya qilish kino ixlosmandlarini jalb qilishi va turizm daromadini oshirishi mumkin. Bugungi kunda Turkiya hamda qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlanayotgan tarixiy va boshqa janrdagi sifatli filmlarni ko'paytirish mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi nufuziga ta'sir qilishi mumkin. Bu orqali yanada ko'plab sayyohlarni jalb qilish imkoni tug'iladi.

Xulosa: Bugungi kunda turizm sohasi dunyo miqyosida eng tez rivojlanayotgan va iqtisodiy daromad keltiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Turizm nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga foyda keltiradi, balki madaniy almashinuv va milliy merosni saqlashda ham muhim o'rin tutadi. O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalari va betakror tabiiy manzaralari bilan katta turizm salohiyatiga ega.

Shu bilan birga, turizm sohasida hali to'liq foydalanilmayotgan imkoniyatlar va muammolar mavjud. Jumladan, mavsumiylik, infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi, marketing strategiyalarining zaifligi va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish zarurati kabi omillar turizmning yanada rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Bugungi kunda yetarlicha foydalanilmayotgan imkoniyatlarga e'tibor qaratish, infratuzilma, marketing va mahsulotlarni yanada yaxshilashga sarmoya kiritish orqali O'zbekiston o'zining sayyohlik takliflarini diversifikatsiya qilishi, kengroq tashrif buyuruvchilarni jalb qilishi va raqobatbardosh turizm yo'nalishi sifatidagi mavqeini mustahkamlashi mumkin.

Shuningdek, Strategik sheriklikni chuqurlashtirish mamlakatlarimizning milliy manfaatlarga taalluqli barcha masalalarda global miqyosda va xalqaro tashkilotlar darajasida bir-birini qo'llab-quvvatlashi nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi.

Hamkorlik nafaqat iqtisodiy sohalarda balki ekologik va madaniy sohalarda ham olib borilishi, yanada samarali aloqalarni rivojlanishiga olib kelmoqda. Ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish zarur. Asosiy hamkorlikni iqtisodiyot tashkil qilsa-da, ekologik muammolarni ortishi, iqlim masalasi, tinchlik va barqarorlik masalalari hozirda dolzarb o'ringa chiqmoqda va bu masalalar yuzasidan ham hamkorlikni chuqurlashtirish, muammolarni tahlil qilish, ularni yechimini birgalikda izlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu muammolarni hal qilishda davlat idoralari, mahalliy hamjamiyat, xususiy sektor manfaatdor tomonlari va xalqaro hamkorlikning roli katta. Infratuzilmadagi kamchiliklarni bartaraf etish, marketing bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish, foydalanish imkoniyatini yaxshilash, sayyohlik takliflarini diversifikatsiya qilish, sifatli xizmatlarni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilishni rag'batlantirish va madaniy merosni asrash orqali O'zbekiston o'zining mintaqaviy turizm yo'nalishlarining to'liq salohiyatini ochib berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, 27-iyul). *Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi* PQ-238-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023, 26-aprel). *Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi* PQ-135-son qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 18-fevral). *Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi* PQ-135-son qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). *O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti to'g'risida, 2024-yil yanvar-mart oylari yakunlari*.

5. Butunjahon Turizm Tashkiloti (UN Tourism). (2024). *Xalqaro sayyohlar oqimi bo'yicha 2024-yilgi hisobot*.

6. *O'zbekiston Respublikasi Turizm strategiyasi – 2030* dasturi.

7. Xolbekov, A., & Karimova, D. (2023). O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish istiqbollari. *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 2.